НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

O‘QUVCHI SHAXSINI IJTIMOIYLASHTIRISHDA PEDAGOGIK MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Toxirova Madina Alisher qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Mtoxirova855@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirish jarayonida pedagogik muhitning o‘rni va ahamiyati, uning mazmun-mohiyati hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ko‘nikmalar, kommunikativ kompetensiyalar, o‘zaro hamkorlik, mustaqil fikrlash va jamoada ishlash qobiliyatlarini shakllantirishda o‘qituvchining pedagogik faoliyati tahlil qilingan. Maqolada oila, maktab va ijtimoiy muhit hamkorligining bola shaxsiyati rivojlanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishga xizmat qiluvchi amaliy metodik tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik muhit, ijtimoiylashuv, o‘quvchi shaxsi, boshlang‘ich ta’lim, ijtimoiy kompetensiya, pedagogik hamkorlik, kommunikativ ko‘nikma, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy moslashuv, shaxs rivojlanishi.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk va jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Chunki zamonaviy jamiyatda insonning muvaffaqiyati faqat uning bilim darajasi bilan emas, balki atrofdagilar bilan muloqot qila olishi, jamoada ishlashi, o‘z fikrini erkin ifodalashi va turli ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olish qobiliyati bilan ham belgilanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim davri bola shaxsining shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bola oilaviy muhitdan kengroq ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirib boradi. Maktab jamoasi, sinfdoshlar, o‘qituvchi va boshqa kattalar bilan munosabatlar orqali u jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtira boshlaydi. Bundan kelib chiqadiki biz Pedagoglarga juda kotta masuliyat yuklangan.

Pedagog so'zi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, lug'aviy ma'nosi **bola yetaklovchi**. Bejizga bu so’zning ma’nosi bunday emas o’qituvchilar kelajak avlodni yoki buyuk maqsadlar bilan ta’lim tarbiya berib kamol topdiradi, yoki vatanga yana bir qancha foydasi teymagan shaxlar yetishtiradi. Shu sababli o‘quvchi shaxsini ijtimoiylashtirishda pedagogik muhitni to‘g‘ri tashkil etish, uning psixologik xavfsizligini ta’minlash va ta’lim jarayonida ijobiy ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Pedagogik muhit tushunchasi va uning mazmun-mohiyati:

Pedagogik muhit bu- ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan, shaxsning shakllanishi, bilishi, ijodiy va kasbiy jihatdan rivojlanishi uchun zamin yaratuvchi ijtimoiy, psixologik, ma'naviy va moddiy shart-sharoitlar majmuasidir.

Pedagogik muhit deganda ko’z oldimizga faqatgina chiroyli bezatilgan sinfxonlar emas,balki U o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar, sinfdagi psixologik atmosfera, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, maktabdagi tarbiyaviy tadbirlar, oilaviy munosabatlar va ijtimoiy faoliyatni ham qamrab oladi.

UNESCO MGIEP ma’lumotlariga ko‘ra, maktabning ijtimoiy-psixologik muhiti o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘qituvchi bilan muloqot, sinfni boshqarish, ta’lim metodlari hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki Samarali pedagogik muhit quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo’lar ekan

Psixologik xavfsizlik: o‘quvchi o‘z fikrini qo‘rqmasdan bildira olishi, xatolaridan qo‘rqmasligi va o‘zini jamoaning teng huquqli a’zosi sifatida his qilishi.

O‘zaro hurmat: o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida samimiy, ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatlarning mavjudligi.

Hamkorlik: o‘quvchilarning birgalikda topshiriqlar bajarishi, muammolarni hal qilishi va umumiy maqsad sari intilishi.

Faollik: o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatlarda faol ishtirok etishi.

Inklyuzivlik: har bir bolaning individual xususiyatlari, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olish.

Adabiyot tahlili

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar, muloqot va hamkorlik jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Olim bolaning dastlab kattalar va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatda egallagan faoliyati keyinchalik uning individual rivojlanishining bir qismiga aylanishini ta’kidlaydi.

Uning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashi ham pedagogik muhit uchun muhimdir. Bu tushuncha bolaning mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yoki bilimli tengdoshlari ko‘magida bajara oladigan faoliyati o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

Bundan ko’rinib turibdiki boshlang‘ich sinfda guruhli mashg‘ulotlar, juftlikda ishlash, o‘zaro yordam va o‘qituvchi ko‘magiga asoslangan faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy hamda bilish rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Urie Bronfenbrenner bola rivojlanishini bir-biri bilan bog‘langan ijtimoiy muhitlar tizimi orqali tushuntiradi. Uning nazariyasida bolaning rivojlanishiga ta’sir etuvchi beshta tizim ajratiladi:

Mikrotizim – oila, maktab, sinf va tengdoshlar bilan bevosita munosabatlar.

Mezotizim – oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik kabi turli muhitlarning o‘zaro aloqasi.

Ekzotizim – bolaga bevosita bog‘liq bo‘lmagan, lekin uning hayotiga ta’sir qiladigan ijtimoiy sharoitlar.

Makrotizim – jamiyat qadriyatlari, madaniy me’yorlar va ijtimoiy qarashlar.

Xronotizim – vaqt davomida yuz beradigan hayotiy va ijtimoiy o‘zgarishlar.

o‘quvchining ijtimoiylashuvini faqat maktab faoliyati bilan izohlab bo‘lmas ekan , Oila, sinf jamoasi, mahalla, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy sharoitlar ham uning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Alber Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida inson xulq-atvorining shakllanishida kuzatish, taqlid qilish va namuna olish jarayonlariga katta ahamiyat beradi.

Unga ko‘ra, bolalar atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali muayyan xulq-atvor shakllarini o‘zlashtiradilar. Masalan, o‘qituvchining boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishi va o‘zaro yordam ko‘rsatishi o‘quvchilar uchun ijtimoiy namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bu pedagogik muhitda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, sinfdoshlarning xatti-harakati va jamoaviy faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi omillar hisoblanishini isbotlab beradi.

Tavsiyalar:

O‘quvchilarning ijtimoiylashuvini samarali tashkil etish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Psixologik xavfsiz muhit yaratish. Har bir o‘quvchining fikrini hurmat qilish, xato qilishdan qo‘rqmaslikka o‘rgatish va sinfda o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirish lozim. Bu bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Hamkorlikka asoslangan faoliyatlarni tashkil etish. Juftlikda ishlash, kichik guruhlar, jamoaviy loyihalar va muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish orqali

o‘quvchilarda muloqot, hamjihatlik, mas’uliyat va o‘zaro yordam ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Pedagogning shaxsiy namunasiga e’tibor qaratish. O‘qituvchi o‘zining muomala madaniyati, adolatli munosabati, sabr-toqati va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishi orqali o‘quvchilarga ijobiy xulq-atvor namunasini ko‘rsatishi kerak. Chunki bola ko‘pincha kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi.

Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish, tarbiyaviy tadbirlar va hamkorlikdagi loyihalarni tashkil etish orqali bola uchun yagona tarbiyaviy muhit yaratish lozim. Bunda oilaviy qadriyatlar va maktab talablari o‘rtasidagi uyg‘unlikka e’tibor berish muhim.

Har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish. O‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, xarakteri va ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularga o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun teng sharoit yaratish zarur. Ayniqsa, tortinchoq, muloqotga kirishishda qiynaladigan yoki alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning jamoaga qo‘shilishiga ko‘maklashish kerak.

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish. Dars jarayonida his-tuyg‘ularni anglash, boshqalarning fikrini tinglash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish va o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his etishga qaratilgan mashg‘ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ijobiy sinf jamoasini shakllantirish. O‘quvchilar o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamjihatlikni rivojlantiruvchi tadbirlar tashkil etish, kamsitish va masxara qilish holatlarining oldini olish lozim. Har bir bola o‘zini sinf jamoasining muhim a’zosi sifatida his qilishi kerak.

Darsdan tashqari faoliyatlarni kengaytirish. Sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, kitobxonlik uchrashuvlari, ko‘ngillilik tadbirlari va ijtimoiy loyihalar o‘quvchilarning turli vaziyatlarda muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Umuman olganda, pedagogik muhitni samarali tashkil etish birgina o‘qituvchining faoliyati bilan cheklanmaydi. Bu jarayon oila, maktab jamoasi va jamiyatning o‘zaro hamkorligini talab qiladi. Shuning uchun ta’lim muassasalarida bilim berish bilan bir qatorda, bolalarda insoniylik, mas’uliyat, hamdardlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratish zarur. Zero, har bir bola o‘zini qadrlangan, tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan muhitda nafaqat bilim oladi, balki jamiyatning faol va mas’uliyatli a’zosi sifatida shakllanadi.